O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI XONQA TUMANI KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-97-168-12-175-K/23 Xonqa tuman hokimligi

Xonqa tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq hamda Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01-38/1690-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xonqa tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuni hamda Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) hamda Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Xonqa tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 119 964,0 mln. so‘m, xarajatlari 197 493,0 mln. so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 77 529,0 mln. so‘m, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag`lar 33 594,9

mln.so`m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma`lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman (shahar) mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 752,7 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armasi tuman byudjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer

maydonlari uchun hududlar kesimida mutloq miqdori 1 gektariga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutloq miqdori 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

12. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari tuman Kengashini mahalliy byudjetni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

benzin, dizel yoqilg‘isini va yakuniy iste`molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

13. Tuman hokimligi tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Choraklar yakunlari bo‘yicha ushbu qonunning 4-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmagan taqdirda, viloyat hokimligi Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so‘rov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Bunda viloyat mahalliy byudjetlarining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli mavjud bo‘lmagan byudjet daromadlari turlarining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki respublika byudjeti hisobidan qoplanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman (shahar)lar hokimliklari ham viloyat hokimligiga xuddi shunday tartibda murojaat qilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Quyidagilar tuman byudjetidan moliyalashtiriladi:

Tuman soliq inspeksiyasini saqlash xarajatlari

14. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov), tuman

iqtisodiyot va moliya bo`limi (D.Abdullaev), tuman soliq inspeksiyasi (D.Qo`chqarov) tuman hokimligi, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (D.Qo`chqarov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining

soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

16. Tuman soliq inspeksiyasi (D.Qo`chqarov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (M.Rajabov) 2024-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

17. Tuman soliq inspeksiyasi (D.Qo`chqarov) tegishli mutasaddi idoralar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

18. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (J.Xajiev) tuman soliq inspeksiyasi (D.Qo`chqarov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

19. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Yahshibaev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlar hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov),tegishli mutasaddi idoralar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob'ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob'ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob'ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob'ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov), tegishli mutasaddi idoralar bilan birgalikda tashqi reklama ob'ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob'ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarning byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

22. Tuman irrigatsiya bo‘limi (T.Xo‘janiyazov) va tuman soliq inspeksiyasi (D.Qo‘chqarov) bilan birgalikda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste`mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olinishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

23.Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Abdullaev):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitilib

borilsin.

24. Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya va xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Qurbanov:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Qurbanov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror “Xonqa hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Karimov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **M.Davlatov**

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024 ЙИЛ УЧУН ХОНҚА ТУМАНИ БЎЙИЧА МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИНГ РЕЖА КЎРСАТКИЧЛАРИ

Даромад турлари		**минг. сўм**
1	Айланмадан олинадиган солиқ	14 244 000
2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	34 239 000
3	Якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғидан ташқари)	1 580 000
4	Бензинни, дизель ёқилғисини ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиғи	19 039 000
5	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	7 430 000
6	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	10 442 000
7	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	12 687 000
8	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	13 595 000
9	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	47 000
10	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	6 467 000
11	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	194 000
ЖАМИ		**119 964 000**

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 йил учун Хонқа туман бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган кенгаш ажратмаларининг чекланган миқдорлари

№	Кўрсаткичлар	миқдори
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**197 493 018,0**
	иш ҳақи, пенсия, стипендия, нафақалар миқдорларини ва айрим хизмат турлари бўйича тарифларни ошиши билан боғлиқ харажатлар (индексация харажатлари)	**0,0**
	Туман ва шахар маҳаллий бюджетларига трансфертлар	
1.	**Таълим**	**15 755 427,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	15 755 427,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2.	**Мактабгача таълим**	**22 886 104,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	22 886 104,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3.	**Соғлиқни сақлаш**	**84 565 623,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	84 565 623,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4.	**Маданият бўлими**	**1 259 031,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 259 031,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
5.	**Ахборот-кутубхона маркази**	**581 830,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	581 830,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6.	**Спорт**	**4 200 512,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 200 512,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
7.	**Ирригация бўлими**	**1 025 937,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 025 937,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
8.	**Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши**	**313 199,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	313 199,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
9.	**Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитасининг туман ташкилотлари**	**2 189 211,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 189 211,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
10.	**Ободонлаштириш бошқармаси**	**17 144 122,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	17 144 122,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
11.	**Давлат бошқарув органларини сақлаш**	**23 471 099,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	23 471 099,0

Харажатлар миқдори, Жами	**197 493 018,0**

12.	**Бошқа харажатлар**	**24 100 923,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	24 100 923,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

Xalq deputatlari Xonqa tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
3-ilova

Умумдавлат солиқларидан шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ажратмалар меъёри

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Айланмадан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шахсларга тегишли мол-мулкни ижарага беришдан оладиган йиллик даромади тўғрисидаги декларацияга асосан тўлайдиган, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Бензинни, дизель ёқилғисини ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, бундан электр станциялари томонидан тўланадиган солиқ мустасно	Давлат активларини фойдаланишга (ижарага) беришдан қонунчиликда белгиланган нормативлар бўйича олинган даромадлар
1	Хонқа тумани	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
4-ilova

Хонқа туман маҳаллий бюджетларнинг 2024 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
Хонқа тумани	119 964 000,0	197 493 018

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
5-ilova

Хонқа туман маҳаллий бюджетининг 2024 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

Т/р	**Шаҳар ва туманлар**	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**	***шундан, акциз солиғи тушумлари хисобидан ажратилган маблаглар****
1	Хонқа тумани	77 529 018	33 594 910

*тамаки, алкогол махсулоталри, шу жумладан пиво (импорт орқали кирган махсулотлардан ташқари) хамда мобил алоқа хизматлари учун акциз солиғи бўйича тушумлари хисобидан ажратиладиган маблағлар

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
6-ilova

Хонқа туман маҳаллий бюджетида йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

минг сўмда

Т/р	Шаҳар ва туманлар	Миқдор
1	Хонқа тумани	833 000,0

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
7-ilova

Юридик шахслар бўйича қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер майдонлари учун ҳудудлар кесимида мутлақ миқдорга 1 гектарга белгиланган базавий солиқ ставкаларига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

Т/р	Ҳудуд номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2024 йил учун 1 (бир) гектар учун сўмда
1	“Қорамози” МФЙ	0,81	27 410 400
2	“Гулистон” МФЙ	0,81	27 410 400
3	“Истиқлол” МФЙ	1,0	33 840 000
4	“Пахтагул” МФЙ	0,81	27 410 400
5	“Илғор” МФЙ	0,81	27 410 400
6	“Дўстлик” МФЙ	1,0	33 840 000
7	“Янги турмуш” МФЙ	0,81	27 410 400
8	“Ойдин ҳаёт” МФЙ	0,81	27 410 400
9	“Ширин” МФЙ	0,81	27 410 400
10	“Баркамоллик” МФЙ	1,0	33 840 000
11	“Фидойилар” МФЙ	1,0	33 840 000
12	“Ватанпарвар” МФЙ	1,0	33 840 000
13	“Жаннатмакон” МФЙ	1,0	33 840 000
14	“Дургадик” МФЙ	0,81	27 410 400
15	“Олчин” МФЙ	0,81	27 410 400
16	“Наврўз” МФЙ	0,81	27 410 400
17	“Тома” МФЙ	0,81	27 410 400
18	“Моштўғай” МФЙ	0,81	27 410 400
19	“Таянч” МФЙ	0,81	27 410 400
20	“Паҳлавонлар” МФЙ	1,0	33 840 000

21	“Гулғунча” МФЙ	1,0	33 840 000
22	“Эзгулик” МФЙ	1,0	33 840 000
23	“Маҳорат” МФЙ	1,0	33 840 000
24	“Нурафшон” МФЙ	0,81	27 410 400
25	“Маданият” МФЙ	0,81	27 410 400
26	“Шодлик” МФЙ	0,81	27 410 400
27	“Знахос” МФЙ	0,81	27 410 400
28	“Ғайрат” МФЙ	0,81	27 410 400
29	“Мустақиллик” МФЙ	0,81	27 410 400
30	“Катта куч” МФЙ	0,81	27 410 400
31	“Нуробод” МФЙ	0,81	27 410 400
32	“Порлоқ” МФЙ	1,0	33 840 000
33	“Янгиланиш” МФЙ	1,0	33 840 000
34	“Аҳиллик” МФЙ	1,0	33 840 000
35	“Бунёдкор” МФЙ	1,0	33 840 000
36	“Пахтакор” МФЙ	0,81	27 410 400
37	“Маданий ер” МФЙ	1,0	33 840 000
38	“Дўрмон” МФЙ	0,81	27 410 400
39	“Обод” МФЙ	0,81	27 410 400
40	“Туркистон” МФЙ	0,81	27 410 400
41	“Ёш куч” МФЙ	1,0	33 840 000
42	“Мангулик” МФЙ	1,0	33 840 000
43	“Эҳтиром” МФЙ	1,0	33 840 000
44	“Муқаддас” МФЙ	1,0	33 840 000

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-168-12-175-K/23-son qaroriga
8-ilova

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган ва қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан ташқари) ер майдонлари учун ҳудудлар кесимида **мутлақ миқдорига 1 кв.м учун** белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

Т/р	Ҳудуд номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2024 йил учун 1 (бир) кв.м учун сўмда
1	“Қорамози” МФЙ	1,07	321,86
2	“Гулистон” МФЙ	1,07	321,86
3	“Истиқлол” МФЙ	1,07	321,86
4	“Пахтагул” МФЙ	1,07	321,86
5	“Илғор” МФЙ	1,07	321,86
6	“Дўстлик” МФЙ	1,07	321,86
7	“Янги турмуш” МФЙ	1,07	321,86
8	“Ойдин ҳаёт” МФЙ	1,07	321,86
9	“Ширин” МФЙ	1,07	321,86
10	“Баркамоллик” МФЙ	1,07	321,86
11	“Фидойилар” МФЙ	1,07	321,86
12	“Ватанпарвар” МФЙ	1,07	321,86
13	“Жаннатмакон” МФЙ	1,07	321,86
14	“Дургадик” МФЙ	1,07	321,86
15	“Олчин” МФЙ	1,07	321,86
16	“Наврўз” МФЙ	1,07	321,86
17	“Тома” МФЙ	1,07	321,86
18	“Моштўғай” МФЙ	1,07	321,86
19	“Таянч” МФЙ	1,07	321,86
20	“Паҳлавонлар” МФЙ	1,07	321,86
21	“Гулғунча” МФЙ	1,07	321,86
22	“Эзгулик” МФЙ	1,07	321,86

23	“Маҳорат” МФЙ	1,07	321,86
24	“Нурафшон” МФЙ	1,07	321,86
25	“Маданият” МФЙ	1,07	321,86
26	“Шодлик” МФЙ	1,07	321,86
27	“Знахос” МФЙ	1,07	321,86
28	“Ғайрат” МФЙ	1,07	321,86
29	“Мустақиллик” МФЙ	1,07	321,86
30	“Катта куч” МФЙ	1,07	321,86
31	“Нуробод” МФЙ	1,07	321,86
32	“Порлоқ” МФЙ	1,07	321,86
33	“Янгиланиш” МФЙ	1,07	321,86
34	“Аҳиллик” МФЙ	1,07	321,86
35	“Бунёдкор” МФЙ	1,07	321,86
36	“Пахтакор” МФЙ	1,07	321,86
37	“Маданий ер” МФЙ	1,07	321,86
38	“Дўрмон” МФЙ	1,07	321,86
39	“Обод” МФЙ	1,07	321,86
40	“Туркистон” МФЙ	1,07	321,86
41	“Ёш куч” МФЙ	1,07	321,86
42	“Мангулик” МФЙ	1,07	321,86
43	“Эҳтиром” МФЙ	1,07	321,86
44	“Муқаддас” МФЙ	1,07	321,86